

PAPER

QO‘L MEHNATIDA NOAN‘ANAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA IJODIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH

Turdaliyeva Nurjahon Abdunosir qizi^{1, *}

¹Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

* nurjahonturdaliyeva3@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni rivojlantirishda qo‘l mehnatining ahamiyati, xususan, noan‘anaviy texnologiyalar yordamida samaradorlikka erishish masalasi tahlil qilinadi. An‘anaviy mashg‘ulotlarga qaraganda bolalarda ko‘proq qiziqish uyg‘otuvchi noan‘anaviy texnologiyalar — rangli qum, tuzli rasm chizish, barmoqlar bilan bo‘yash, tabiiy materiallardan kompozitsiyalar tuzish, chiqindilarni qayta ishlash orqali yaratish va boshqa usullar qo‘llanilgan. Tadqiqot davomida bolalarning ijodiy tafakkuri, mustaqil yondashuvi, estetik didi va yaratuvchanligi bu kabi texnologiyalar yordamida sezilarli darajada rivojlanishi kuzatildi. Maqolada nazariy tahlil, kuzatuv va eksperimental usullarga asoslangan holda bolalarning ijodiy faolligini shakllantirish bo‘yicha samarali metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Olingan natijalar noan‘anaviy texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan qo‘l mehnati mashg‘ulotlarini yangicha tashkil etish zaruratini asoslab beradi.

Key words:

qo‘l mehnati, noan‘anaviy texnologiyalar, ijodiy faollik, maktabgacha ta‘lim, pedagogik yondashuvlar.

Kirish

Zamonaviy maktabgacha ta‘lim tizimi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa ularning ijodiy faolligini shakllantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bola tabiatdan ijodkordir va uning ichki salohiyatini ochish, yangi g‘oyalarni ilgari surish, tasavvurini kengaytirish uchun samarali pedagogik usullar zarur. Ushbu jarayonda qo‘l mehnati mashg‘ulotlari muhim rol o‘ynaydi. Chunki aynan mehnat jarayonida bola nafaqat biror narsa yasaydi, balki o‘ylaydi, tasavvur qiladi, tanlaydi va yaratadi.

So‘nggi yillarda pedagogik amaliyotda qo‘l mehnatini tashkil etishda noan‘anaviy texnologiyalardan foydalanishga e‘tibor kuchaymoqda. Bunday yondashuvlar bolalarning faolligini oshirib, ularda mustaqil ijodiy fikrlash, noodatiy yechim topish, materiallar bilan erkin ishlash kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. An‘anaviy maket yoki qog‘oz bilan ishlashga nisbatan rangli qum, tuz, tabiiy materiallar, chiqindi buyumlar, sensorli vositalar, barmoqlar bilan bo‘yash kabi texnologiyalar bolaning faol ishtirokini kuchaytiradi, darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning qo‘l mehnati jarayonida noan‘anaviy texnologiyalar yordamida ijodiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik imkoniyatlar,

ularning amaliy qo‘llanilishi hamda samaradorlik darajasi o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiylikni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini aniqlash va metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish pedagogik va psixologik adabiyotlarda muhim yo‘nalishlardan biri sifatida o‘rganilib kelmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning tasavvuri, estetik didi va tafakkurini shakllantirishda san‘at, mehnat va ijodiy faoliyat muhim o‘rin tutadi [1].

A.V. Bakushina va T.S. Komarova bolalar bilan badiiy-estetik faoliyatni tashkil etish orqali ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish mumkinligini ta‘kidlaydi [2]. N.A. Vetlugina esa bolalar san‘atga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlashda mustaqil ijodiy faoliyatni kengaytirish zarurligini urg‘ulaydi [3].

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar – G‘Yo. Yo‘ldosheva, N.Q. Xudoyberganov va D.A. Karimovlar maktabgacha ta‘limda mehnat faoliyati orqali bolalarda tasavvur, tahliliy fikrlash, ijodkorlikni shakllantirish bo‘yicha samarali metodik

tavsiyalar ishlab chiqqanlar [4]. G'Yo. Yo'ldoshevaning fikricha, "noan'anaviy texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolaning o'z fikrini mustaqil ifoda etishiga zamin yaratadi" [4, 72-b].

Xorijiy adabiyotlarda ham noan'anaviy yondashuvlarning bolalar ijodiylikiga ta'siri haqida keng yoritilgan. Masalan, K. Wright noan'anaviy materiallar (qum, loy, tabiiy buyumlar) orqali bolalar o'zlarini erkin ifoda eta olishlarini tajriba asosida isbotlaydi [5]. R. Edwards esa bolalarni atrof-muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishga undovchi, faol, interaktiv metodlarni qo'llashni taklif etadi [6].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish uchun an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda noan'anaviy metodlar va texnologiyalarni qo'llash samaradorlikni oshiradi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni rivojlantirishda noan'anaviy texnologiyalar bilan boyitilgan qo'l mehnati mashg'ulotlarining pedagogik samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot quyidagi ilmiy metodologik asoslar, yondashuvlar va usullar asosida olib borildi:

Tadqiqot obyekti: Maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'l mehnati faoliyati.

Tadqiqot predmeti: Qo'l mehnati mashg'ulotlarida noan'anaviy texnologiyalardan foydalanish orqali bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi ilmiy yondashuvlarga tayanildi:

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – har bir bolaning individual qobiliyati, qiziqishi va ijodiy salohiyatini inobatga olgan holda mashg'ulotlar tashkil etildi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv – bolalarning faol ishtiroki, tajriba orqali o'rganishi va yaratuvchanlik orqali o'z fikrini ifoda etishi ta'minlandi.

Innovatsion yondashuv – noan'anaviy texnologiyalar: qum terapiyasi, tuzli rasm chizish, tabiiy materiallardan kollajlar, chiqindi buyumlar bilan ishlash kabi usullar tadqiqotda sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqot metodlari:

Nazariy tahlil – mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik adabiyotlar, ilg'or tajribalar, xorijiy va mahalliy manbalar o'rganildi.

Kuzatuv – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'l mehnati mashg'ulotlari jarayoni muntazam kuzatildi.

Ekspirimental ishlar – ikki guruhdan iborat tajriba ishlari tashkil etildi:

Nazorat guruhi – an'anaviy usullar asosida mashg'ulotlar olib borildi.

Tajriba guruhi – noan'anaviy texnologiyalar asosida qo'l mehnati tashkil qilindi.

Suhbat va so'rovnoma – pedagoglar, tarbiyachilar va ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazilib, ularning fikr-mulohazalari tahlil qilindi.

Diagnostika – bolalarning ijodiy faolligi bosqichlari maxsus mezonlar asosida baholandi (masalan, tasavvur kengligi, mustaqil qaror qabul qilish, material tanlashi, yangilikka intilishi).

Tadqiqot bazasi:

Tajriba ishlarining amaliy qismi Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi 23-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkazildi. Unda 5–6 yoshli 30 nafar bola ishtirok etdi.

Natijalar

Tadqiqot doirasida ilgari belgilab olingan nazariy tahlil, kuzatuv, eksperimental ishlar, suhbat va diagnostika metodlariga asoslanilgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'l mehnati faoliyati orqali ijodiy faolligi rivojlanish dinamikasi o'rganildi. Bu jarayonda ikki guruhga ajratilgan bolalar bilan tizimli mashg'ulotlar olib borildi. Guruhlar faoliyati davomida bolalarning mustaqil fikrlash, noodatiy yechimlar taklif etish, estetik didini ifodalash kabi ko'rsatkichlari mezonlar asosida baholandi va tahlil qilindi.

Ushbu bo'limda aynan noan'anaviy texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarning ijodiy faollikka ta'siri statistik va grafik tahlillar asosida ko'rib chiqiladi.

Nazariy tahlil metodi asosida:

Tajribaning boshlanishida mavjud adabiyotlar, ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalar o'rganildi. Shu orqali:

Noan'anaviy texnologiyalar turlari aniqlab olindi: qum terapiyasi, tabiiy materiallar bilan ishlash, chiqindi buyumlardan kollajlar, tuzli rasm chizish va barmoqlar bilan bo'yoqda rasm ishlash kabilari.

Ijodiy faollikni baholovchi 5 ta asosiy mezon ishlab chiqildi (ijodiy fikrlash, mustaqillik, materiallardan foydalanish, estetik did, yangilikka intilish).

Bu tayyorgarlik eksperimentni ilmiy asosda va tizimli tashkil qilishga xizmat qildi.

Kuzatuv metodi asosida:

Tajriba boshlanishidan oldin va davomida maktabgacha ta'lim tashkilotida mavjud qo'l mehnati mashg'ulotlari muntazam kuzatildi. Kuzatuv jarayonida quyidagilar e'tiborga olindi:

Bolalarning mashg'ulotga qiziqishi, faol ishtiroki;

Tarbiyachi tomonidan berilayotgan topshiriqlarning ijodiylikka yo'naltirilganlik darajasi;

Bolaning topshiriqqa bo'lgan yondashuvi – andozaga asoslanganmi yoki mustaqil ijodga yo'naltirilganmi;

Mashg'ulot oxirida har bir bolaning bajargan ishlari baholandi va yozib borildi.

Bu kuzatuvlar asosida dastlabki (boshlang'ich) natijalar aniqlandi.

Eksperimental (tajriba) ishlar:

Tajriba ikki guruhda olib borildi:

Nazorat guruhi (15 nafar bola): An'anaviy qo'l mehnati (qog'oz, karton, plastilin bilan ishlash).

Tajriba guruhi (15 nafar bola): Quyidagi noan'anaviy texnologiyalar asosida mashg'ulotlar o'tkazildi:

Qum terapiyasi: Rangli qumlarda barmoqlar yordamida rasmlar chizish, bu orqali bolaning hissiy holati, estetik didi va ko'z–qo'l muvofiqligi rivojlandi.

Tuzli rasm chizish: Tuz, elim va akvarel bo'yoqlari yordamida kompozitsiyalar yaratish – bu jarayon bolalarda noodatiy materiallarga qiziqishni oshirdi.

Chiqindi materiallardan kollaj: Qog'oz, plastik, tugma, mato qoldiqlari yordamida o'z g'oyasi asosida kollaj yaratish – ijodiy fikrlashga yo'l ochdi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash: Yong'oq po'chog'i, yaproq, shox, toshlar bilan hayvonot olami yoki tabiat manzaralari yasash – bu orqali bolalarda tabiatga nisbatan estetik munosabat shakllandi.

Mashg'ulotlar haftada 2 marta, har bir guruh uchun bir xil sharoitda o'tkazildi.

Suhbat va so'rovnoma usullari:

Tajriba yakunida tarbiyachilar va ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazildi:

Tarbiyachilardan: bolalarning ilgari qanday faoliyatga moyilligi bo'lganligi va hozirgi holati bo'yicha fikrlar olindi.

Ota-onalardan: farzandlarining mashg'ulotlarga munosabati, uy sharoitida ham mustaqil ijod qilishga intilishi haqida ma'lumot olindi.

Bu suhbatlar natijalari tajriba yakunidagi o'zgarishlarni ko'rsatishda muhim dalil bo'lib xizmat qildi.

Diagnostika (baholash) usuli:

Eksperiment davomida bolalarning ijodiy faolligi boshlanish va yakuniy bosqichlarda maxsus mezonlar asosida baholandi. Har bir mezon uchun 3 darajali baholash tizimi qo'llanildi:

Past (0–39%)


O'rta (40–69%)

Yuqori (70–100%)

Bu orqali har bir bolaning individual rivojlanish dinamikasi aniqlandi va guruhlararo solishtirma tahlil amalga oshirildi.

Ijodiy faollikning rivojlanish dinamikasi

Quyidagi diagrammada nazorat va tajriba guruhlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faolligi ko'rsatkichlarining eksperiment boshidagi va yakunidagi natijalari taqqoslab ko'rsatilgan.



Ijodiy faollikning rivojlanish dinamikasi (tajriba va nazorat guruhlarida kesimida).

Muhokama

Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'l mehnati faoliyati jarayoniga noan'anaviy texnologiyalarni joriy etish bolalarning ijodiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan metodlar – kuzatuv, eksperimental ish, suhbat va diagnostika – o'zaro bir-birini to'ldirgan holda samarali natijalar berishga xizmat qildi.

Nazorat va tajriba guruhlarida misolida o'tkazilgan eksperiment davomida aniqlanishicha, an'anaviy qo'l mehnati mashg'ulotlarida bolalarning ishtiroki cheklangan bo'lib, ular asosan tayyor andozalarga tayanib ish yuritadilar. Bu esa ijodiy fikrlash, mustaqillik, materiallardan erkin foydalanish kabi ko'nikmalarining shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Boshqa tomondan, tajriba guruhida joriy etilgan noan'anaviy texnologiyalar – masalan, qum terapiyasi, chiqindi materiallar bilan ishlash, tabiiy materiallardan kollaj tayyorlash kabi faoliyatlar – bolalarda yangilikka intilish, tasavvur va ifoda vositalarining rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Ushbu faoliyatlar bolaning psixologik holatini sog'lomlashtiribgina qolmay, ularni emotsional va aqliy jihatdan faollashtirdi.

Grafik tahlil shuni tasdiqlaydiki, tajriba guruhi bolalarining ijodiy faollik darajasi 40–50% ga oshgan bo'lib, bu esa eksperimental metodik yondashuvning samaradorligini isbotlaydi. Jumladan, "Materiallardan foydalanish" mezon bo'yicha 81%, "Ijodiy fikrlash" bo'yicha esa 78% natijaga erishilgan.

Bu esa, o'z navbatida, maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy, noan'anaviy yondashuvlarni amaliyotga joriy qilish zaruriyatini ko'rsatadi. Bunday yondashuv bolalarning shaxsiy rivojlanishida, mustaqil fikr va kreativlikni shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

"Maktabgacha ta'limdagi qo'l mehnati" kontekstida "kollaj tayyorlash" (ya'ni ingliz tilidagi collage) nazarda tutiladi. Bu turli materiallar – qog'oz, gazeta parchalari, mato, tabiatdan olingan elementlar (barg, gullar, po'stloq), chiqindi materiallar va boshqalardan kompozitsion asar yaratish texnikasi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishda qo'l mehnati faoliyatining, ayniqsa noan'anaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning dolzarbligi va yuqori samaradorligi aniqlandi. Ushbu jarayon bolalarning ijodiy tafakkurini faollashtirish, yangicha g'oyalar ilgari surishga undash, mustaqil qaror qabul qilish, vizual obrazlar yaratish kabi muhim ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida qo'llanilgan metodlar (kuzatuv, eksperiment, suhbat, diagnostika) orqali olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy usullar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda bolalarning faollik darajasi past bo'lib, ijodiy tashabbus, erkin fikr va noodatiy qarorlar kam namoyon bo'ladi. Aksincha, tajriba guruhi faoliyatida noan'anaviy texnologiyalar (qum terapiyasi, kollaj, tuzli rasm, chiqindi materiallar bilan ishlash, mozaika, montaj, origami) qo'llanilishi orqali bolalarda:

- fikr erkinligi;
- materiallar bilan mustaqil ishlash qobiliyati;
- estetik idrok;
- emotsional hissiyotlar orqali ifoda topgan obrazlar yaratish;
- o'z-o'zini ifodalash va o'z qobiliyatiga ishonch hissi

kuchaydi.

Grafik tahlillar esa tajriba guruhidagi bolalar ijodiy faolligi barcha mezonlar bo'yicha 40–50% ga oshganini isbotlaydi. Ayniqsa, "Materiallardan foydalanish" va "Ijodiy fikrlash" ko'rsatkichlari 80% dan oshgani bu faoliyatni ta'lim jarayonida muntazam tatbiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tajriba davomida noan'anaviy texnologiyalarning bolalarning psixologik holatiga ijobiy ta'siri ham kuzatildi – bolalar yanada faol, qiziqqon va tashabbuskor bo'lib borishdi. Bu esa ijodiy rivojlanish faqatgina san'at yo'nalishidagina emas, balki umumiy tafakkur va shaxsiy o'sishning ham muhim omili ekanini ko'rsatadi.

Takliflar

Quyidagi takliflar qo'l mehnati jarayonida noan'anaviy texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari dasturlariga qo'l mehnati mashg'ulotlarida noan'anaviy texnologiyalarni tizimli ravishda integratsiya qilish. Bular qatoriga qum terapiyasi, kollaj, origami, chiqindi materiallardan foydalanish, tuzli rasm, mozaika va montaj texnikalari kiradi.
2. Tarbiya jarayonida individual yondashuvni kuchaytirish, ya'ni har bir bolaning qiziqishi, ehtiyoji va ijodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda mos mashg'ulot turlarini tashkil etish.
3. Tarbiya beruvchilarning malakasini oshirish maqsadida maxsus seminar-treninglar, amaliy kurslar tashkil qilish; bunda innovatsion pedagogik yondashuvlar va zamonaviy metodlardan foydalanishni o'rgatish.
4. Ota-onalar bilan hamkorlikda ijodiy faoliyatlarni tashkil etish, ularni bolalar bilan birgalikda kollajlar, qo'g'irchoqlar, tabiatdan olingan materiallardan ijodiy ishlanmalar tayyorlashga jalb etish.
5. Ijodiy ishlanmalar ko'rgazmalarini muntazam o'tkazish orqali bolalarning o'z ishlariga nisbatan qiziqishini oshirish va

ularni ragʻbatlantirish.

6. Tarbiyachilar uchun metodik qoʻllanmalar va dars ishlarni bankini yaratish, ularda noanʼanaviy texnologiyalarni qoʻllash boʻyicha bosqichma-bosqich koʻrsatmalar boʻlishi lozim.

7. Mahalliy va xorijiy ilgʻor tajribalarni oʻrganish va amaliyotga joriy etish, ayniqsa kreativ pedagogika, art-terapiya va integrallashgan mashgʻulot metodikasi sohasida.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsyepsiyasi toʻgʻrisida”gi PQ-4312-son Qarori.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabr “Maktabgacha taʼlim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash toʻgʻrisida” gi 802-sonli Qarori.
3. Oʻzbekiston respublikasi maktabgacha taʼlim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat oʻquv dasturi takomillashtirilgan ikkinchi nashr Toshkent-2022
4. “Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni. 16. 12. 2019 yildagi OʻRQ-595-son.
5. Karimova, D.A. – Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Toshkent: Fan,2018.
6. Komarova, T.S. – Художественное воспитание в детском саду. Москва: Просвещение,1984.
7. Abdurashidov, A., Turdaliyeva, N. (2023). DEVELOPMENT OF MANUAL WORK IN PRE-SCHOOL EDUCATION. Science and innovation, 2(B2), 282-286.
8. qizi Turdaliyeva, N. A. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. GOLDEN BRAIN, 2(7), 48-52.
9. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich, Boymirzayeva Shakhnoza Olimjon kizi. (2023). Systemic Organization of Professional Competence, Creativity and Innovative Activity of A Future Kindergartener. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 19, 108-112. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/3709>
10. Soliyev, I., Boymirzayeva, S. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Наука и инновация, 1(6), 128-129.
11. qizi Boymirzayeva, S. O. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BO 'LAJAK TARBIYACHINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(7), 41-47.
12. Shahnova, B. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. University Research Base, 164-167